

ZOOLOGIYA FANINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Ergasheva Xonoyim Abduqaxxorovna

*Toshkent davlat agrar universiteti**O`simliklar karantini va himoyasi kafedrasida assistenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zoologiya fanining maqsadi talabalarga evolyutsion nazariya asosida hayvonot dunyosining xilma-xilligi, hayvonlar sistematik guruhlarining kelib chiqishi, jug'rofik tarqalishi, tashqi va ichki tuzilishi, rivojlanish xususiyatlari va ekologiyasini o'rgatish ekanligi haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: zoologiya, hayvonot olami, tarqalishi, vujudga kelishi, tuzilishi, rivojlanishi, ahamiyati.

Zoologiya (*zoon* – hayvon, *logos* – fan) – hayvonlarning tuzilishi, hayot kechirishi, ko'payishi va rivojlanishini o'rganadigan fan. Hayvonlarning xilma-xilligi va tarqalishi, tabiatda va inson hayotidagi ahamiyati, kelib chiqishini o'rganish zoologiyaning vazifasiga kiradi.

Zoologiya qadimgi fanlardan bo'lib, bu fanga eramizdan ilgari 384-322 yillarda yashagan greksiyalik olim, faylasuf **Aristotel (Arastu)** asos solgan. **Arastu** o'sha zamonda fanga ma'lum bo'lgan 454 xil (tur) hayvonlarni tuzilishi hayoti va tarqalishini sistema asosida bayon qilib bergan. **Arastu** asarlaridagi hayvonot dunyosi sistemasi ko'p jihatdan hozirgi sistemaga yaqin bo'lib, unda hayvonlar; qonlilar (umurtqalilar) va qonsizlar (umurtqasizlar) degan katta guruhlarga, bular esa o'z navbatida yana sakkizta kichik guruhlarga: tirik tug'uvchi to'rt oyoqlilar (sut emizuvchilar), tuxum quyuvchi ikki oyoqlilar (qushlar), tuxum quyuvchi to'rt oyoqlilar (sudralib yuruvchilar) oyoqsiz tuxum quyuvchi jabralilar (baliqlar) hashoratlar, qisqichbaqasimonlar kabilarga ajratgan. Arastuning zoologiyaga oid asarlari o'zining to'la va mazmunligi bilan, hatto XVIII asrda yozilgan asarlardan ham ajralib turadi.

Uyg'onish davrlarigacha jumladan o'rta asr davrlarida ham zoologiyaning rivojlanishida deyarli siljish bo'lmadi. Barcha to'plangan ma'lumotlar sistemaga solinib hikoya tarzida berilar edi. Bu paytda kelib Arastu sistematikasi unitilib ketgan edi. Jumladan nemis olimi K. Gesnerning besh tomli "**Zoologiya qomusi**" (XVII asr) shu tarzda yozilgan bo'lib hayvonot dunyosi alifbo tarzida ko'rsatilgan edi.


Zoologiya fanining qaytadan rivojlanishi 1735 yildan, ya'ni mashhur shved olimi **K.Linneyning "Tabiat sistematikasi"** nomli kitobining maydonga kelishi bilan boshlandiki, bu kitobda ma'lum bo'lgan hayvonlarning ancha qo'lay bo'lgan sun'iy sistematika asosida o'rganish metodlari ifodalangan edi.

Zoologiya - hayvonlar (Animalia) turini o'rganish bilan shug'ullanadigan hayvonot olami. Bu protein, karbohidratlar va yog'lar bilan oziqlangan organizmlarning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Bunday turlar o'simliklardan farq qiladi, chunki ular ma'lum manbalardan hayot uchun zarur bo'lgan organik moddalarni doimo sintezlaydi. Hayvonlar turlarining ko'plab vakillari mustaqil ravishda harakatlana olishadi. Qo'ziqorinlar har doim o'simliklar hisoblanadi. Biroq ular tashqi manbalardan organik moddalarni iste'mol qilish qobiliyatiga ega ekanliklarini payqashdi. Kislородni noorganik molekulalardan sintezlovchi bunday

organizmlar ham mavjud. Biroq, ular ko'chib o'tish qobiliyatiga ega emaslar. Boshqa so'z bilan aytganda, ular mavjud bo'lmaganligi sababli, umumiy tushuncha berish va hayvonlar va o'simliklar o'rtasida muqobil mezonlarni aniqlash mumkin emas.

Bunday holda, qaysi yo'nalishga o'rganilayotganligi va qanday muammolarni o'rganishiga qarab farqlanadigan ko'plab yo'nalishlarga bo'linish mavjud. Zoologiya - bu ikki asosiy yo'nalishga aylangan fan. Masalan, umurtqasizlar va umurtqali hayvonlarni o'rganish. Shuningdek, ushbu sohalarda bunday fanlar o'z ichiga olishi mumkin:

- Protistologiya. Bunday holda, protozoyani o'rganish amalga oshiriladi.
- Ixtiologiya baliqni o'rganishdir.
- Helmintologiya - parazit qurtlarni o'rganish.
- Malakologiya - mollyuskalarni o'rganish.
- Acarologiya - Shomilni o'rganish.
- Entomologiya - hasharotlar o'rganish.
- Kanserologiya - xandon arobalarini o'rganish.
- Herpetologiya - ko'kda uchuvchi va amfibiyaliklarni o'rganish.
- Ornitologiya - qushlarni o'rganish.
- Teriologiya - sut emizuvchilarni o'rganish.



Zoologiya fanining maqsadi talabalarga evolyutsion nazariya asosida hayvonot dunyosining xilma-xilligi, hayvonlar sistematik guruhlarining kelib chiqishi, jug'rofik tarqalishi, tashqi va ichki tuzilishi, rivojlanish xususiyatlari va ekologiyasini o'rgatishdir. Barcha o'quv materiallari esa shakl va funksiya birligi, bog'liqlik (korrelatsiya), moslashish (adaptatsiya), biogenetik kabi umumbiologik qonunlar asosida o'rganiladi. Bu qonunlarning tub mohiyatini bilish esa bo'lajak bakalavr – veterinariya tibbiyoti, qorako'lchilik, zootexniya, veterinariya va zootexniya bo'lyicha kasbiy ta'lim oluvchi pedagog mutaxassislariga juda zarur bo'lib hisoblanadi. Turli kasalliklarga chidamli, sarmahsul yangi hayvon zotlarini yaratishda, hayvonlarda uchraydigan parazit kasalliklarning kelib chiqishini aniqlashda, ularga qarshi to

‘g’ri chora-tadbirlar qo‘llashda zoologiya eng muhim fundamental fanlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, zoologiya bilimlari asosida talabalar hayvonot dunyosining hozirgi holatini, biogenetik va xo‘jalik ahamiyatini to‘g‘ri baholashga erishadilar. Zoologiyani o‘rganishning asosiy vazifasi talabalar ongiga umumbiologik qonuniyatlarni singdirish, ularni hayvonot dunyosining sistematikasini mustaqil tahlil qilishga o‘rgatish, har bir hayvon guruhining evolutsiyasini bilishga, muhim parazit hayvonlarning rivojlanish xususiyatlarini to‘g‘ri tasavvur qilish va ular tomonidan chaqiriladigan kasalliklarning oldini olish choralari ustida mustaqil fikr yuritish, hayvonot dunyosidan oqilona foydalanib, uni genetik fond va xonakilashtirish rezervi sifatida himoya qilishga o‘rgatishdan iborat.

Hozirgi paytda hayvonot dunyosi 2 miln ga yaqin turga ega bo‘lib bu hayvon turlari 20 dan ortiq tipga kiritilgan. Shulardan qishloq xo‘jalik oliygohlarida quyidagi tiplarni osrganish muhim hisoblanadi:

- eng sodda hayvonlar – Protozoa;
- bulutlar – Spongia;
- kovakichlilar – Coelentrata;
- yassi yoki parenximali chuvalchanglar – Plathelminthes;
- birlamchi tana bo‘shliqli yoki yumaloq chuvalchanglar – Nematelminthes;
- ikkilamchi tana bo‘shliqli yoki halqali chuvalchanglar ~ Annelides;
- yumshoq tanlilar yoki molluskalar ” Mollusca;
- bo‘g‘im oyoqlilar – Arthropoda;
- ignaterililar – Echinodermata;
- • xordalilar – Shordata.

Shulardan eng sodda hayvonlar tipi bir hujayrali, qolgan barcha hayvonlar tiplari esa ko‘p hujayrali organizmlarni tashkil qiladi. Ko‘p hujayrali organizmlar o‘z navbatida tuban va yuqori darajada taraqqiy etgan guruhlariga ajratilgan. Tuban darajada rivojlangan hujayralilarga bulutlar va kovakichlilar tiplari mansub bo‘lib, ular ikki qavatli, to‘qima va organlarga ega bo‘lmagan, maxsus vazifalarni bajaruvchi hujayralar guruhlaridan tashkil topgan organizmlardir. Yassi chuvalchanglar tipidan boshlab o‘rganiladigan barcha ko‘p hujayralilar uch qavatli, maxsus to‘qima va organlarga yoki organlar tizimiga ega bo‘lgan organizmlardir. Zoologiya fani rivojlana borib, endilikda uning maxsus qisrmarini o‘rganuvchi mustaqil fanlar paydo bo‘lgan. Jumladan;

1. eng sodda hayvonlar tipini o‘rganuvchi zoologiyaning maxsus qismi – protozoologiya,
2. barcha chuvalchaglami o‘rganuvchi zoologiyaning maxsus qismi – gelmintologiya,
- yumshoq tanlilarni o‘rganuvchi qismi – malakologiya,
- o‘rgimchaksimonlarni o‘rganuvchi qismi – araxnologiya,
- kanalar turkumini o‘rganuvchi qismi – akarologiya,
- hasharotlar sinfini o‘rganuvchi qismi - entpmologiya,
- o‘rgimchaksimonlar va hasharotlarni qo‘shib o‘rganuvchi qismi – araxnoentomologiya,
- baliqlarni o‘rganuvchi qismi – ixtiologiya,
- qushlarni o‘rganuvchi qismi – omitologiya,
- sutemizuvchilarni o‘rganuvchi qismi – mammologiya yoki teriologiya deb yuritiladi.

Hozirgi vaqtda yuqorida ko‘rsatilgan fanlar bo‘yicha maxsus mutaxassislar yetishib chiqqan.

1. Doniyorovna S. G. ZOOLOGIYA FANINI O 'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. - 2023. - T. 3. - №. 4. - C. 342-345.

2. Doniyorovna S. G. ZOOLOGIYA FANINI O 'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. - 2023. - T. 3. - №. 4. - C. 342-345.

3. Tolkinovna K. M. ZOOLOGIYA (SUYAKLI BALIQLAR MISOLIDA) FANINI O'QITISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR //Conference Zone. - 2022. - C. 227-230.